


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- iyun holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- iyun holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 27,7 mingtani tashkil etadi, shundan 23,9 mingtasi yoki 86,3 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,8 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 90,4 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati



| | Korxona va tashkilotlar | shundan: | |
|------|-------------------------|---------------------------|----------|
| | | Tadbirkorlik subyektlari | shundan: |
| | | Kichik biznes subyektlari | |
| 2025 | 27 685 | 24 041 | 23 895 |
| 2024 | 30 051 | 26 592 | 26 424 |
| 2023 | 30 111 | 26 747 | 26 568 |
| 2022 | 31 873 | 28 476 | 28 305 |
| 2021 | 29 761 | 26 444 | 26 302 |

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Buxoro shahrida – 27,1 foiz, G'ijduvon – 10,4 foiz, Romitan – 8,9 foiz, Jondor – 8,0 foiz va Buxoro – 7,4 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Romitan – 90,0 foiz va 89,5 foiz, Kogon – 89,9 va 89,4 foiz, Jondor – 88,5 foiz va 88,4 foiz hamda Buxoro – 88,0 foiz va 87,8 foiz tumaniga to'g'ri keldi.

| | Korxona va tashkilotlar | shundan: | |
|---------------------|-------------------------|---------------------------|----------|
| | | Tadbirkorlik subyektlari | shundan: |
| | | Kichik biznes subyektlari | |
| Olot tumani | 1 190 | 1 009 | 1 005 |
| Buxoro tumani | 2 050 | 1 803 | 1 799 |
| Vobkent tumani | 1 697 | 1 471 | 1 465 |
| G'jduvon tumani | 2 887 | 2 525 | 2 504 |
| Kogon tumani | 1 500 | 1 348 | 1 341 |
| Qorako'l tumani | 1 379 | 1 103 | 1 093 |
| Qorovulbozor tumani | 614 | 531 | 520 |
| Peshku tumani | 1 512 | 1 281 | 1 276 |
| Romitan tumani | 2 467 | 2 221 | 2 209 |
| Jondor tumani | 2 226 | 1 970 | 1 968 |
| Shofirkon tumani | 1 676 | 1 407 | 1 403 |
| Buxoro shahar | 7 493 | 6 513 | 6 460 |
| Kogon shahar | 994 | 859 | 852 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- iyun holatiga 29,3 foizni (33,7 foiz va 33,8 foiz) tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 11,3 % (13,0 % va 12,9 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 10,9 % (12,3 % va 12,9 %).

Birgalikda ushbu uch turdag'i faoliyat ularning umumiy sonining 51,5 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

| | Korxona va tashkilotlar | shundan: | |
|--|-------------------------|--------------------------|---------------------------|
| | | Tadbirkorlik subyektlari | shundan: |
| | | | Kichik biznes subyektlari |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 3 005 | 2 966 | 2 955 |
| Sanoat | 3 139 | 3 133 | 3 092 |
| Qurilish | 2 044 | 2 024 | 2 005 |
| Savdo | 8 100 | 8 096 | 8 076 |
| Tashish va saqlash | 2 338 | 2 336 | 2 329 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2 001 | 1 999 | 1 995 |
| Axborot va aloqa | 337 | 321 | 321 |
| Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 947 | 714 | 712 |
| Boshqa turlar | 5 774 | 2 452 | 2 410 |

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra, 24,0 mingta faol tijorat korxonalaridan 19,2 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

| | Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda) | Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda) |
|--------------------------------|---|---|
| Mas'uliyati cheklangan jamiyat | 19 231 | 80,0 |
| Xususiy korxonalar | 2 175 | 9,0 |
| Oilaviy korxonalar | 2 417 | 10,1 |
| Aksiyadorlik jamiyat | 34 | 0,1 |
| Boshqalar | 184 | 0,8 |

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalarini ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 339 ta korxonalardan 119 tasi qo'shma korxonalar va 220 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1- iyun holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 66 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 208 tadan 166 taga, (o'sish 42 taga), sanoatda 166 tadan 163 taga (o'sish 3 taga) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 42 tadan 37 taga (o'sish 5 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

| | Jami: | shundan: | |
|--|------------|-----------------|-----------------|
| | | Qo'shma korxona | Xorijiy korxona |
| Jami: | 339 | 119 | 220 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 16 | 9 | 7 |
| Sanoat | 94 | 49 | 45 |
| Qurilish | 25 | 8 | 17 |
| Savdo | 129 | 31 | 98 |
| Tashish va saqlash | 10 | 2 | 8 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 22 | 10 | 12 |
| Axborot va aloqa | 2 | - | 2 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 6 | 1 | 5 |
| Boshqa turlar | 35 | 9 | 26 |

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 52 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 15,5 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (12,5%), Turkiya (13,4%), Qozog'iston (2,1%) va Janubiy Koreya (2,4%) ham alohida o'rinni egallaydi.

| | Jami: | shundan: | |
|----------------------|------------|-----------------|-----------------|
| | | Qo'shma korxona | Xorijiy korxona |
| Jami: | 339 | 119 | 220 |
| Xitoy | 53 | 19 | 34 |
| Rossiya | 43 | 23 | 20 |
| Turkiya | 44 | 23 | 21 |
| Qozog'iston | 7 | 2 | 5 |
| Afg'oniston | 19 | 2 | 17 |
| Janubiy Koreya | 8 | 5 | 3 |
| AQSH | 7 | 5 | 2 |
| BAA | 5 | 1 | 4 |
| Germaniya | 6 | 4 | 2 |
| Tojikiston | 7 | 1 | 6 |
| Qirg'iz.Respublikasi | 3 | 1 | 2 |
| Hindiston | 14 | 2 | 12 |
| Ozarbayjon | 2 | 1 | 1 |
| Buyuk Britaniya | 4 | 2 | 2 |
| Belorusiya | 3 | 3 | - |
| Turkmaniston | 74 | 9 | 65 |
| Pokiston | 4 | - | 4 |
| Boshqa davlatlar | 36 | 16 | 20 |



IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'llanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Soq'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
N. Fuzaylova
65 223-83-20 (8060)

Maznil:
200100, Buxoro sh.,
S.Ayniy ko'chasi, 3-uy